

MEDIATA'LIM SHAROITIDA TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Xujamkulov Aziz Pirimkulovich

TDPU o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15133210>

Annotatsiya. Maqolada mediata'lim sharoitida talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, mediata'limning talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni va samaradorligi, mediata'lim vositalari – raqamli texnologiyalar, internet resurslari, interfaol dasturlar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarning ta'siri tadqiq etilgan. Bundan tashqari maqolada mediata'lim vositalari yordamida talabalar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish choralari ham ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar: tanqidiy fikrlash, mediata'lim, strategiyalar, VR texnologiya, multimedia, dezinformatsiya, faktlarni tekshirish, tahlil, sun'iy intellekt, axborot madaniyati.

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируется процесс формирования и развития навыков критического мышления студентов в условиях медиаобразования с научно-теоретической точки зрения. Также исследованы роль и эффективность медиаобразования в развитии навыков критического мышления учащихся, влияние средств медиаобразования – цифровых технологий, интернет-ресурсов, интерактивных программ, технологий виртуальной и дополненной реальности. Кроме того, в статье рассматриваются факторы, препятствующие формированию у студентов навыков критического мышления с помощью средств медиаобразования, и меры по их устранению.

Ключевые слова: критическое мышление, медиаобразование, образовательные стратегии, VR-технологии, мультимедиа, дезинформация, проверка фактов, анализ, искусственный интеллект, информационная культура.

DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING IN TERMS OF MEDIA EDUCATION

Abstract. The article analyzes the process of formation and development of critical thinking skills of students in the context of media education from a scientific and theoretical point of view. The role and effectiveness of media education in the development of critical thinking skills of students, the influence of media education tools - digital technologies, Internet

resources, interactive programs, virtual and augmented reality technologies are also studied. In addition, the article considers the factors that hinder the formation of critical thinking skills in students with the help of media education tools, and measures to eliminate them.

Key words: critical thinking, media education, educational strategies, VR technologies, multimedia, disinformation, fact-checking, analysis, artificial intelligence, information culture.

Kirish. Bugungi zamonaviy dunyoda ijtimoiy munosabatlar-ning keskinlashuvi va axborot oqimining tobora ortib borishi natijasida inson fikrlash masalasi o'z dolzarbligi jihatidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib shakllantirish masalasi pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biri ekanligini anglagan holda, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga tez va aniq javob berishini ta'minlaydigan ilmiy dunyoqarashi va tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifamiz sanaladi. Bu o'rinda inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, iqtidorini yuzaga chiqarishda fikrlash turlari va yo'nalishlari ichida eng zarurlaridan biri sifatida tanqidiy fikrlashni keltirish mumkin. Ushbu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak." – degan fikrlari asnosida bo'lajak kardrlarni tayyorlashda bugungi kun ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rinadi.

Asosiy qism. "Tanqidiy fikrlash" tushunchasi XX asr o'rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo'lib tanqidiy fikrlash atamasi K.Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko'ra har bir tirik organizm muammolarni "hal qiluvchi" vazifasini bajaradi. Atrofdagi ma'lumotlar tirik organizmning ma'nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi bu hodisani oldindan beradi.

Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash – haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi.

Tanqidiy fikrlash qadimdan buyon turli olimlar va faylasuflar tomonidan o'rganilgan va rivojlantirilgan. Quyidagi qadimgi olimlar o'z qarashlari bilan tanqidiy fikrlashga katta hissa qo'shgan:

Yunon faylasuflaridan biri Suqrot "Sokrat usuli" orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shgan va savol-javob yo'li bilan mantiqiy tahlil qilish, mavjud qarashlarni shubha ostiga olish, haqiqatga erishish uchun mantiqiy mushohadalarni ishlatish muhimligini targ'ib qilgan.

Platon esa Dialektika usulidan foydalangan holda fikrlarni sinchkovlik bilan tahlil qilishni ilgari surgan hamda o'zining "G'or tashbehi" falsafiy allegoriyasi inson qanday qilib o'z fikrlashini rivojlantirishi va haqiqatni tanqidiy tahlil qilish orqali anglashini tushuntiradi.

Yana bir faylasuf Aristotel mantiq va deduktiv fikrlash asoschisi sifatida o'zining "Organon" asari bilan fikrlash jarayonini mantiqiy tahlil qilish tamoyillarini alohida e'tibor qaratgan.

O'rta asr Sharq Uyg'onish davri qomusiy olimlaridan biri Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni juda muhim deb hisoblaydi. Unga ko'ra, haqiqiy bilimga erishish uchun odamlar mustaqil fikrlashlari, dalillarni sinchiklab tekshirishlari va turli fikrlarni tahlil qilishlari kerak. Farobiyning fikricha, ideal jamiyatda har bir fuqaro o'z fikrini asosli va mantiqan izchil tarzda ifoda eta olishi zarur. Shuningdek, u insonlarni dogmatik fikrlashdan voz kechishga, shubhalanish va izlanishga undaydi. Yana bir qomusiy olim Abu Ali ibn Sino esa empirik metod va ilmiy tadqiqotga asoslangan fikrlashni rivojlantirgan va tajriba va kuzatuvlar orqali bilimga erishish muhimligini ta'kidlagan. Abu Rayhon Beruniy esa tanqidiy fikrlashning amaliy jihatlariga katta e'tibor qaratgan. Masalan, u Yerning aylanishi haqidagi o'sha davrda mashhur bo'lgan qarashlarni tekshirib, o'z tajribalari orqali ba'zi noto'g'ri tushunchalarni rad etgan. U ilm-fanni faqatgina nazariy fikrlash bilan emas, balki tajribalar orqali isbotlash kerakligini ilgari surgan. Uning "Hindiston" asari tanqidiy tahlilning yorqin namunasi bo'lib, unda hind madaniyati, falsafasi va ilmiy yutuqlari haqida xolis va chuqur fikr yuritilgan.

Zamonamiz olimlaridan akademik S.S.G'ulomov o'z tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash uchun "dalillarni eslab qolish va g'oyalarni isbotlash" deb ta'rif beradi. T.Nazarov tanqidiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rgangan va bu borada tadqiqotlar olib borgan.

Olim quyidagicha ta'rif bergan: "Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir". E.Farmonov va Z.Sharipovlar "Ilmiy izlanish asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida ilmiy tadqiqot metodologiyasi, jumladan, tanqidiy fikrlashning ahamiyati haqida so'z yuritganlar.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib biz tanqidiy fikrlash tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik: **tanqidiy fikrlash** – bu axborotni tizimli tahlil qilish, dalillarning ishonchligini baholash, qarama-qarshi fikrlarni topish va asosli xulosalar shakllantirishni o'z ichiga oladigan kognitiv faoliyat.

Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularga nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- ✓ Axborotni tahlil qilish va undan foydalanish qobiliyati;
- ✓ O'z fikrini asoslash va dalillarga suyanish;

- ✓ Turli manbalardan ma'lumot olish va ularni solishtirish;
- ✓ Muammoni hal qilishda ijodiy yondashuv;
- ✓ Qaror qabul qilish jarayonida ob'ektivlikni ta'minlash;
- ✓ Stereotiplardan xoli bo'lish va mustaqil xulosa chiqarish.

Mediata'lim va tanqidiy fikrlash Mediata'lim – bu ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalari, internet texnologiyalari, raqamli resurslardan foydalanish jarayonidir. Mediata'lim tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ✓ Talabalar mustaqil axborot izlash va uni tahlil qilishni o'rganadi;
- ✓ Turli manbalar orqali real faktlarni yolg'ondan ajratish ko'nikmasiga ega bo'ladi;
- ✓ Media kontentni tahlil qilish orqali argumentatsiya va dalillarga asoslangan fikrlash qobiliyatini shakllantiradi;
- ✓ Internet manbalaridan foydalanishda tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi;
- ✓ Axborot xurujlariga qarshi immunitet hosil qilishga ko'maklashadi;
- ✓ Ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyalari. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin:

1. Munozaralar va bahslar – Talabalarni muayyan mavzuda bahslashishga undash ularning argumentatsiya ko'nikmasini rivojlantiradi.
2. Katta hajmdagi axborotni tahlil qilish – Talabalar turli manbalardan kelgan ma'lumotlarni taqqoslash orqali to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganadi.
3. Kritik savollar qo'yish – Har bir taqdim etilgan axborot bo'yicha "Nega?", "Qanday qilib?", "Qanday dalillar bor?" kabi savollar berish talabalar fikrlash jarayonini faollashtiradi.
4. Case study (vaziyatli tahlil) – Talabalar real hayotiy muammolarni tahlil qilish orqali o'z qarashlarini shakllantiradi.
5. Media mahsulotlarni tahlil qilish – Talabalar reklama, yangiliklar, maqolalarni o'rganish orqali ularning ishonchliligini tekshirish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
6. Fakt va fikrni ajratish – Talabalarga haqiqatga mos va noto'g'ri axborotni ajratib olish o'rgatiladi.
7. Dasturiy vositalar yordamida media tahlil qilish – raqamli texnologiyalar orqali soxta yangiliklarni aniqlash va media savodxonlikni oshirishga e'tibor qaratish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda kompyuterdan foydalanish usullari Zamonaviy texnologiyalar yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Onlayn kurslar va interaktiv darsliklar – Talabalar tanqidiy fikrlash bo'yicha onlayn resurslar orqali mustaqil bilim olishi mumkin;
- Axborotni tahlil qilish dasturlari – Google Scholar, FactCheck.org, Snopes kabi platformalar orqali ishonchli manbalarni aniqlash;
- Sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalari – ChatGPT, Grammarly, Turnitin kabi vositalar yordamida matnni tahlil qilish, plagiatni aniqlash va dalillarning to'g'riligini tekshirish;
- VR texnologiyasi orqali muammolarni tahlil qilishga o'rgatish – Simulyatsiya, modellashtirish va mantiqiy o'yinlar yordamida qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Bloglar va forumlar orqali muhokama qilish – Talabalar o'z bloglarini yuritish va forumlarda qatnashish orqali tahliliy fikr yuritish ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin;

Mediata'limning o'quv jarayoniga ta'siri. Mediata'lim sharoitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bir qancha jihatlar orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Birinchidan mediata'lim orqali interaktiv ta'lim muhiti yaratiladi. Bunda virtual va raqamli resurslardan foydalanish orqali ta'lim jarayoni yanada qiziqarli bo'lishi ta'minlanadi. Ikkinchidan, ko'rgazmali o'qitish – video, animatsiya, diagramma va infografika orqali axborot yanada tushunarli bo'ladi.

Uchinchidan, talabalarning faolligi oshadi va mustaqil izlanishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga o'rganadilar. To'rtinchidan, talabalar axborotni ob'ektiv baholashga o'rganadilar, ularda soxta ma'lumotlar va dezinformatsiyaga qarshi kurashish ko'nikmalari shakllanadi.

Shu bilan bir qatorda mediata'lim sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda duch kelinadigan muammolar ham yo'q emas. Masalan:

- ko'pgina pedagoglar an'anaviy ta'lim metodlaridan voz kechish qiyinligi sababli tanqidiy fikrlashga asoslangan interaktiv metodlarni qo'llashga qiynalishadi;
- talabalar mashg'ulotlar jarayonida faqat ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklanib, mustaqil izlanish va tahlil qilishga sust yondashishadi;
- talabalarning ko'pchiligi ommaviy axborot vositalaridan olingan har qanday ma'lumotni (fake news (yolg'on axborot) va manipulyativ kontent) haqiqat deb qabul qilishadi, o'qituvchilar esa ularni to'g'ri yo'naltirishda qiyinchilikka duch kelishadi;
- pedagoglar o'quv yuklamasining ko'pligi tufayli ular faqatgina ta'lim dasturini bajarish bilan band bo'ladilar, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish uchun metodik jihatdan tayyorlanishga ulgurmaydilar;
- ba'zi o'qituvchilar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ikkinchi darajali yoki ortiqcha deb hisoblashadi.

Xulosa. Mediata'lim sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismidir.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega talabalar kelajakda mustaqil qaror qabul qilish, axborotni to'g'ri tahlil qilish va hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatlariga ega bo'ladilar.

Mediata'lim orqali yosh avlodni tanqidiy fikrlovchi, ijodiy va innovatsion shaxs sifatida shakllantirish mumkin. Shuningdek, media savodxonlikni oshirish, turli informatsion xurujlarga qarshi tura olish va jamiyatda ishonchli axborot tarqatish qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar.
2. Zagashev I. O., Zair-Bek S. I. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi. - Санкт-Петербург: "Альянс Дельта" nashriyot uyi, 2003.- 284 b.
3. Abu Nasr Forobiy – Fozil odamlar shahri. Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b
4. Mushtavinskaya I.V. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi: ilmiy va
5. uslubiy aks ettirish: [Xalqaro loyiha doirasida Sankt-Peterburg shahridagi 177-sonli gimnaziya tajribasidan]
6. D.R.Garrison, H.Kanuka; Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education, The Internet and Higher Education, Volume 7, Issue 2, 2nd Quarter 2004, Pages 95-105
7. Hove, G. Developing critical thinking skills in the high school English classroom. Unpublished Master dissertation, Menominee, WI: The Graduate School University of Wisconsin-Stout. 2011
8. Nishonov A, Xaydarov B., Nuriddinov B. va boshqalar. Baholash usullari. O'quv qo'llanma. T., 2003. 190 bet.
9. R.H.Ennis, Critical Thinking. Upper Saddle River, NJ: Prentice-Hall 1996
10. Ruggiero, V. R. The art of thinking: A guide to critical and creative thought (10th ed.). New York, NY: Longman. 2012
11. Шакирова Д. М. Формирование критического мышления учащихся и студентов: модель и технология // Educational Technology & Society. – 2006. – № 9 (4). – С. 284–293.

12. Лушин П. В. Критическое мышление в отечественном образовательном пространстве: из опыта формирования. –

URL:<http://www.politik.org.ua/vid/books.php3?b=17>.